



## DAVLAT XARIDLARI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SHARTNOMALAR VA ULARNING DAVLAT MOLİYASIGA TA'SIRI

**Abduraxmonova Mahliyo**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*ORCID:0009-0008-5241-0112*

*[mabduraxmonova9000@mail.ru](mailto:mabduraxmonova9000@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat xaridlarini tashkil etish jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, davlat xaridlarida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri, bugungu kundagi holati yoritilgan. Davlat xaridlaridagi mavjud muammolar va ularning sabablari keltirilgan. Shuningdek, davlat xaridlari tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, davlat buyurtmasi, tender, shaffoflik, korrupsiya, raqamli iqtisodiyot, byudjet samaradorligi, monitoring.

## ПРЯМЫЕ КОНТРАКТЫ В РАМКАХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ФИНАНСЫ

**Абдурахмонова Махлиё**

*Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических и практических аспектов процессов организации государственных закупок. Рассматриваются также прямые контракты в рамках государственных закупок и их влияние на экономику, а также их текущее состояние. Представлены существующие проблемы в сфере государственных закупок и их причины. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование системы государственных закупок.

**Ключевые слова:** государственные закупки, общественный порядок, тендер, прозрачность, коррупция, цифровая экономика, эффективность бюджета, мониторинг.

## DIRECT CONTRACTS IN PUBLIC PROCUREMENT AND THEIR IMPACT ON PUBLIC FINANCES

**Abdurakhmonova Mahliyo**

*The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of the processes of organizing public procurement. It also covers direct contracts in public procurement and their impact on the economy, as well as their current status. The existing problems in public procurement and their causes are presented. Scientifically based proposals and recommendations aimed at improving the public procurement system are also developed.

**Keywords:** public procurement, public order, tender, transparency, corruption, digital economy, budget efficiency, monitoring.

### **Kirish.**

Davlat xaridlari tizimi davlat moliyasini boshqarishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat xaridlari orqali davlat byudjet mablag'larining katta qismi iqtisodiyotga yo'naltiriladi va bu jarayon milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali nafaqat byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, balki tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, davlat xaridlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

Davlat xaridlari tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, uning puxta shakllangan nazariy-huquqiy asoslariga bog'liqdir. Davlat xaridlari iqtisodiy kategoriya sifatida nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, amaliyotda ularning samaradorligi huquqiy tartibga solish darajasi bilan bevosita belgilanadi. Shu sababli davlat xaridlari tizimini o'rganishda moliyaviy nazariya bilan bir qatorda huquqiy mexanizmlarning o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Nazariy jihatdan davlat xaridlari davlat moliyasining xarajatlar mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, byudjet munosabatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi va yetkazib beruvchi o'rtasida moliyaviy-huquqiy munosabatlar shakllanadi. Ushbu munosabatlar davlat manfaatlari ustuvorligi, byudjet intizomi va jamoat ehtiyojlarini qondirish tamoyillariga asoslanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan davlat xaridlari davlat va xususiy sektor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning alohida shakli bo'lib, u maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ilmiy adabiyotlarda davlat xaridlari tizimi "maxsus tartibga solinadigan bozor" sifatida talqin qilinadi, chunki unda bozor mexanizmlari davlat tomonidan belgilangan qoidalar asosida amal qiladi.

Davlat xaridlarini huquqiy tartibga solishning zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, davlat xaridlari byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgani sababli ularning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash talab etiladi.

Ikkinchidan, davlat xaridlari jarayonida korrupsion xavflar yuqori bo'lgani bois shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiruvchi huquqiy mexanizmlar zarur.

Uchinchidan, davlat xaridlari orqali raqobat muhitini shakllantirish va barcha ishtirokchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratish huquqiy asosga tayanishi lozim.

Shu jihatdan davlat xaridlarining huquqiy asoslari davlat moliyasini boshqarishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, amalda davlat xaridlari tizimida qator institutsional va tashkiliy muammolar mavjud. Bu esa mazkur tizim samaradorligini pasaytiradi va byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, davlat xaridlarini tashkil etish jarayonlarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularni takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Davlat xaridlari tizimi iqtisodiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda davlat xaridlari davlatning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida talqin etiladi. Ushbu tizim orqali davlat bozor munosabatlarini tartibga solish, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va strategik tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat xaridlari sohasini tadqiq qilgan olimlardan biri Smith (2010) bo'lib, uning fikricha, qonunchilikda aniqlik va shaffoflik yetishmasa, korrupsiya xavfi ortadi, shu sababli barcha xarid jarayonlari ochiq va tushunarli bo'lishi kerak.

Shuningdek, Yukins (2008) esa davlat xaridlarida raqamlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, elektron tizimlar inson omilini kamaytirib, adolatsizliklarning oldini oladi. Bu esa qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Gordon (2017) esa davlat xaridlarida ortiqcha byurokratiya muammo ekanini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, murakkab tartiblar tizim samaradorligini pasaytiradi va korrupsiya uchun sharoit yaratadi. Shu sababli qonunchilik sodda va aniq bo'lishi zarur deb ta'kidlasa, Peter Trepte fikricha davlat xaridlarida tenglik va adolat tamoyillariga alohida urg'u beradi. Agar barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratilmasa, raqobat cheklanadi va tizim samaradorligi pasayadi.

Kelman (2011) esa xarid jarayonida faqat narx emas, balki sifat va natijadorlik ham muhim ekanini ta'kidlab, qonunchilikda aynan shu mezonlar ustuvor bo'lishi kerak deb hisoblagan.

Shu o'rinda xorijiy olimlar bilan bir qatorda mahalliy olimlarning ham davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ayrim mulohazalariga to'xtalsak:

Masalan, Djurayev o'z ilmiy ishlarida davlat xaridlarida asosiy muammo sifatida nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Uning fikricha, kuchli monitoring va audit tizimi bo'lmasa, qonun buzilishlari ko'payadi.

Mustafoev (2024) esa davlat xaridlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi masalasiga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, ayrim hollarda qonunchilikdagi bo'shliqlar korrupsion sxemalarga yo'l ochadi.

Shuningdek, Qodirov (2022) davlat xaridlarida kichik biznes subyektlarining yetarli darajada ishtirok etmayotganini muammo sifatida ko'rsatadi. Bu esa raqobatning pasayishiga olib keladi.

Xudoyberdiyev (2021) esa o'z tadqiqotlarida elektron davlat xaridlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamlashtirish orqali shaffoflik va samaradorlikni oshirish mumkin.

Yuqorida guvohi bo'lganimiz kabi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xaridlarining asosiy tamoyillari sifatida shaffoflik, raqobat, tenglik va samaradorlik ko'rsatib o'tilgan. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda elektron davlat xaridlari tizimlari keng joriy etilgan bo'lib, ular orqali barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan va inson omili minimal darajaga tushirilgan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar davlat xaridlari jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ular davlat xaridlarida ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Davlat xaridlarida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar va ularning iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodologiyasidagi mavjud kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash kabi metodlardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Davlat xaridlari tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib, uni samarali tashkil etish byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, raqamlashtirish va shaffoflikni ta'minlash zarur.

Davlat xaridlarida tizimida byudjet mablag'laridan foydalanishning holati o'rganilganda ushbu sohani huquqiy tartibga solish bo'yicha yangi tahrirdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va bir qator normativ hujjatlar qabul qilinganligiga qaramasdan qonun talablariga zid ravishda davlat byurtmachilari tomonidan xaridlarni xaridlarni raqobatli usullarini chetlab o'tgan holda hamda yuqori narxlarda amalga oshirish,

qonun hujjatlariga zid ravishda to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish, xaridlarni qismlarga bo'lish, ochiqlik va shaffoflik prinsipiga rioya etmaslik holatlari ko'zga tashlanadi.

Hususan, hisob palatasining audit tadbirlarida jami 5,4 trln.so'mlik davlat xaridlari va boshqa qonunchilik talablarini buzish holatlariga yo'l quyilganligi aniqlangan. Bundan tashqari 3,6 trln.so'mlik xaridlar to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha ma'lumotlar maxsus portaliga joylashtirilmagan.

Tahlillarga ko'ra, 2024 yilda davlat xaridlarining 56,8 foizi (80,3trln.so'm) to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan (misol uchun: to'g'ridan to'g'ri shartnomalarning jami xaridlardagi ulushi Qozog'istonda 25 %ni Gruziyada 37%ni tashkil qiladi). Bunda, byudjet byurtmachilarining 55,2 foizi to'g'ridan to'g'ri va korporativ byurtmachilarning 58,7 foizi to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida o'tkazilgan xaridlarda ishtirok etishgan.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarning 29,5 foizi (23,7 trln. so'm) qurilish, 22,6 foizi (18,2 trln. so'm) kommunal, 9,8 foizi (7,9 trln. so'm) oziq-ovqat, 7,1 foizi (5,7 trln. so'm) dori-darmon va tibbiy buyumlar, 6,6 foizi (5,3 trln. so'm) asosiy vositalar va 24,4 foizi (19,6 trln. so'm) boshqa tovarlar, xizmatlar xaridiga to'g'ri kelmoqda.

Bu ko'rsatkichlar 2022-yilda 41,9 foizni (85,7 trln.so'm) tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Shundan, byudjet byurtmachilarining 48,3 foizi to'g'ridan to'g'ri va korporativ byurtmachilarning 40,1 foizi to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida o'tkazilgan xaridlarda ishtirok etishgan.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali amalga oshirilgan xaridlar ulushi suv xo'jaligi, davlat aktivlarini boshqarish, transport, maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash, qurilish sohalari hamda mahalliy hokimliklarda yuqori darajada qolmoqda.

1-jadval.

**2022-yilda davlat buyurtmachilari tomonidan raqobatsiz usulda amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risida ma'lumot**

Xarid turi	jami		shundan						
			Byudjet buyurtmachilari		Korporativ buyurtmachilar		Strategik ahamiyatga ega yetkazib beruvchilar		
	Bitim soni	foizda	Bitim soni	foizda	Bitim soni	foizda	Bitim soni	foiz	
<b>jami</b>	1.505.502	100%	1.062.830	100%	363.815	100%	78.857	100%	
Raqobatsiz usul orqali	447.750	56,4%	389.773	60,1%	50.322	71,0%	7.655	41,5%	
Shundan:	Yagona yetkazib beruvchi	101.462	14,4%	81.657	11,9%	17.630	30,9%	2.175	3,9%
	To'g'ridan to'g'ri shartnoma	346.288	41,9%	308.116	48,3%	32.692	40,1%	5.480	37,6%

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan to'g'ri xaridlarning 30 foizga yaqini yagona yetkazib beruvchilar bilan, xarid qilingan jami tovar va xizmatlarning 31 foizi esa to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)larning tasdiqlangan ro'yxati (PQ-3953-son qaror) asosida amalga oshirilgan. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda belgilanmagan (istisno tarzidagi hujjatlar) tartibida ham har yili ko'plab xaridlar amalga

oshiriladi. Bunda xaridlar e'lon joylashtirmasdan va elektron shaklda o'tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali amalga oshirishga ro'xsat beriladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda davlat xaridlari tizimidagi muammolar kompleks va bir-biriga bog'liq bo'lib, ularni hal etish huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va texnologik yechimlarni birgalikda amalga oshirishni talab qiladi. Raqamli innovatsiyalar, xususan AI, blockchain va elektron savdolarini keng qo'llash tizim samaradorligini oshiradi, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi va tizimning shaffofligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, tizimni doimiy modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishning asosiy omili bo'ladi.

Shuningdek, sohaga oid boshqa qonun va qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, davlat xaridlarida to'g'ridan-to'g'ri raqobatsiz savdolarga chek qo'yishga doir ishlarni izchil amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Davlat xaridlarida raqobat muhitini yanada yaxshilash va unda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ulushini qisqartirish maqsadida «Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonunga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Birinchidan, davlat buyurtmachilari uchun individual tarzda davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirish huquqini beruvchi normalarni qisqartirish;

Ikkinchidan, davlat buyurtmachilari tomonidan taklif so'rovi orqali raqobatli tarzda amalga oshiriladigan xarid qilish usuli hamda ushbu usul orqali xarid qilish mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini qonunda belgilash;

(PQ-3953-son qarorga muvofiq tasdiqlangan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan 46 turdagi tovar (ish, xizmat)larning ro'yxati qayta ko'rib chiqish);

Uchinchidan, taklif so'rovi orqali raqobatli tarzda amalga oshiriladigan xaridlarga asos bo'lgan hujjatlarni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran maxsus axborot portaliga joylashtirish talablarini belgilash;

To'rtinchidan, yagona yetkazib beruvchi sifatida qonunda faqat bozorda muqobillari bo'lmagan va yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo'lgan texnik jihatdan murakkab tovarlar (ish va xizmatlar)ni hamda tabiiy monopoliya sub'ekti tovarlari (ish va xizmatlari) ni belgilash;

Beshinchidan, vakolatli davlat organi tomonidan davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik buzilgan yoki shartnoma majburiyatlari bajarilmagan hollarda aybdor shaxslarga nisbatan ko'rilgan choralar to'g'risidagi axborotni davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portaliga majburiy ravishda joylashtirib borish kabi tadbirlarni normativ huquqiy hujjatlar bilan belgilash sohadagi qonun buzilish va byudjet mablag'larini ortiqcha talon taroj bo'lishini oldini olishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

*Arrowsmith, S. (2010) The law of public and utilities procurement. London: Sweet & Maxwell.*

*Karimov, I.A. (1996) O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent: O'zbekiston.*

*Keynes, J.M. (1936) The general theory of employment, interest, and money. London: Macmillan.*

*OECD (2016) Towards efficient public procurement: Best practices and tools. OECD Publishing.*

*Ricardo, D. (1817) On the principles of political economy and taxation. London: John Murray.*

*Smith, A. (1776) The wealth of nations. London: W. Strahan and T. Cadell.*

*Thai, K.V. (2001) Public procurement: Concepts and practices. In: International handbook of public procurement.*

*To'xtayev, A.A. (2020) O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi va uning rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: O'zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi.*

*Trionfetti, F. (2000) 'Discriminatory public procurement and international trade', World Economy.*

*Weber, M. (1947) The theory of social and economic organization. New York: Oxford University Press.*